



0 0 0 1 1 0 2 0 1
0 0 3 0 0 0 0 0 1
0 0 0 0 1 1 1 0 1
0 1

Ψ



PSIXOLOGIYA VA UMUMIY FANLAR KAFEDRASI “XXI ASR PSIXOLOGIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI



ПРОГРАММА МЕЖДУНАРОДНОЙ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИИ XXI ВЕКА»



PROGRAM OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
“CURRENT ISSUES OF 21ST CENTURY PSYCHOLOGY”



22 - 23 MAY 2026



BUXORO



(Buxoro,
22-23 may)



Mas'ul muharir:
D.SH.BARATOVA



Buxoro: BXU, 2026.
— 212 bet.



Tiraj:
500 nusxa.



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

**XXI ASR PSIXOLOGIYASINING DOLZARB
MUAMMOLARI MAVZUSIDAGI XALQARO
KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI**

Buxoro-2026



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Ushbu konferensiyasi materiallari Buxoro xalqaro universiteti Ilmiy kengashining 2026-yil 26- fevraldagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.

“XXI asr psixologiyasining dolzarb muammolari ” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami. Buxoro, 2026-yil 22-23 may. Buxoro: BXU, 2026 436-bet.

Mas'ul muharrir:

Baratova.D.Sh

Taqrizchilar:

Shoumarov G'.B

Muxtorov E.M

Ushbu konferensiya to'plami “XXI asr psixologiyasining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari asosida tayyorlangan. Mazkur to'plamda zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlari, shaxs psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik jarayonlar, raqamli texnologiyalar ta'sirida inson psixikasidagi o'zgarishlar hamda psixologik xizmatni rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, unda yoshlar psixologiyasi, oilaviy munosabatlar, stress va emotsional holatlarni boshqarish, sun'iy intellekt va psixologiya integratsiyasi, zamonaviy pedagogik-psixologik texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari o'z aksini topgan.

To'plam psixologiya sohasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun foydali ilmiy-manba sifatida xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.



1. Bandura A. *Moral Disengagement: How People Do Harm and Live with Themselves*. – New York: Worth Publishers, 2018. – 464 p.
2. Berk L.E. *Development Through the Lifespan*. 8th ed. – Boston: Pearson, 2022. – 864 p.
3. Bronfenbrenner U., Morris P.A. *The Ecology of Developmental Processes*. – New York: Wiley, 2019. – 412 p.
4. Gottman J.M., Silver N. *The Seven Principles for Making Marriage Work*. – New York: Harmony Books, 2021. – 320 p.
5. OECD. *Society at a Glance 2024: OECD Social Indicators*. – Paris: OECD Publishing, 2024.
6. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2021. – 363 с.
7. Дружинин В.Н. Психология семьи. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – 288 с.
8. Карабанова О.А. Психология семейных отношений. – Москва: Юрайт, 2022. – 275 с.
9. Egamberdiyeva N.M. *Yoshlar psixologiyasi*. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 286 b.
10. G'oziyev E.G'. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 512 b.

Amirjanova Dildora Zarifboy qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

SURUNKALI INSOMNIYADA KLINIK-PSIXOLOGIK TUZILMA VA PSIXOKORREKSIYA YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisda surunkali insomniyaning klinik-psixologik tuzilmasi, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hamda bemorlarning emotsional va kognitiv holatidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, surunkali insomniyani korrektsiya qilishda qo'llaniladigan zamonaviy psixokorreksiya yondashuvlari, jumladan, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, relaksatsiya texnikalari, uyqu gigiyenasi va psixoedukatsiyaning samaradorligi ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari kompleks klinik-psixologik yondashuv bemorlarning uyqu sifatini yaxshilash, psixoemotsional holatini barqarorlashtirish va hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: surunkali insomniya, klinik psixologiya, uyqu buzilishi, klinik-psixologik tuzilma, psixokorreksiya, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, relaksatsiya, psixoedukatsiya, uyqu gigiyenasi.

Аннотация. В данной работе рассмотрены клинико-психологическая структура хронической инсомнии, психологические факторы её формирования, а также изменения эмоционального и когнитивного состояния пациентов. Особое внимание уделено современным подходам психокоррекции, включая когнитивно-поведенческую терапию, методы релаксации, гигиену сна и психообразование. Анализ научных данных свидетельствует о том, что комплексный клинико-психологический подход способствует улучшению качества сна, снижению уровня тревожности и эмоционального напряжения, а также повышению качества жизни пациентов.

Ключевые слова: хроническая инсомния, клиническая психология, нарушение сна, клинико-психологическая структура, психокоррекция, когнитивно-поведенческая терапия, релаксация, психообразование, гигиена сна.

Abstract. *This thesis explores the clinical and psychological structure of chronic insomnia, the psychological factors contributing to its development, and the emotional and cognitive changes observed in affected individuals. It also reviews contemporary psychocorrection approaches, including cognitive behavioral therapy for insomnia (CBT-I), relaxation techniques, sleep hygiene, and psychoeducation. The analysis of scientific literature indicates that a comprehensive clinical and psychological approach effectively improves sleep quality, reduces emotional distress, and enhances patients' overall quality of life.*

Keywords: *chronic insomnia, clinical psychology, sleep disorder, clinical-psychological structure, psychocorrection, cognitive behavioral therapy for insomnia (CBT-I), relaxation techniques, psychoeducation, sleep hygiene.*

Kirish. So'nggi yillarda COVID-19 pandemiyasi global sog'liqni saqlash tizimi uchun jiddiy sinov bo'lib, nafaqat o'lim va nogironlik holatlarining ortishi, balki aholida turli nevrologik, neyropsixologik va psixoemosional buzilishlarning keng tarqalishi bilan ham xarakterlandi. Pandemiya davrida va undan keyingi bosqichlarda infeksiya inson organizmining nafaqat somatik, balki markaziy nerv tizimi faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga muvofiq, 2021-yil boshlaridan boshlab COVID-19 ga qarshi emlash jarayonlari keng yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda esa 2021-yil 1-apreldan ommaviy emlash ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi va davom ettirildi. Shu davr mobaynida tibbiyotning barcha yo'nalishlari mutaxassisleri tomonidan aholiga tibbiy yordam ko'rsatish bilan bir qatorda, koronavirus infeksiyasining organizmga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ham kengaytirildi.

O'zbekistonda ham COVID-19 pandemiyasi va undan keyingi davrda kasallik oqibatida yuzaga kelgan nevrologik hamda psixoemosional buzilishlarni o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borildi (Agranovskiy M.L., Ashurov Z.Sh., Magzumova Sh.Sh., Xodjaeva N.I., Rahimbaeva G.S., Majidova Yo.N., Ibodullaev Z.R. va boshqalar). Ushbu tadqiqotlar infeksiyaning asoratlari nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikka ham uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

2022-yil fevral oyidan boshlab O'zbekistonda karantin cheklovlarining bosqichma-bosqich bekor qilinishi kuzatildi. Shunga qaramay, COVID-19 pandemiyasi o'zidan keyin bir qator uzoq muddatli asoratlarni, jumladan "postkovid sindromi" sifatida e'tirof etilayotgan klinik holatlarni yuzaga keltirdi. Zamonaviy ilmiy-tibbiy adabiyotlarda ushbu sindrom doirasida nevrologik, kognitiv va psixoemosional buzilishlar alohida o'rganilmoqda hamda ularning mexanizmlarini aniqlash dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, COVID-19 infeksiyasidan keyingi neyropsixologik va psixoemosional o'zgarishlarni o'rganish hamda ularning klinik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish bugungi kun tibbiyoti va psixologiyasi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-yilgacha bo'lgan davrda xavotirli-fobik, xavotirli-depressiv hamda obsessiv-fobik buzilishlar, shuningdek, surunkali insomniya holatlari umumiy populyatsiyada nisbatan kamroq uchraydigan klinik-psixologik muammolar sifatida qaralgan. Biroq COVID-19 pandemiyasi ushbu buzilishlarning epidemiologik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada o'zgartirib, ularning klinik-psixologik tuzilmasini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Pandemiyagacha bo'lgan davrda xavotirli buzilishlar tarqalishi dunyo miqyosida 3–30 % oraliqida qayd etilgan bo'lsa, COVID-19 davrida ushbu ko'rsatkich 12–70 % gacha oshgani bir qator tadqiqotlarda ko'rsatilgan (Yao H., Zhao N. va boshqalar). Shu asosda ayrim mualliflar tomonidan "COVID-19 bilan bog'liq ruhiy buzilishlar" atamasini ilmiy muomalaga kiritish taklif etilgan.

Yevropa mamlakatlarida pandemiya davrida xavotirli buzilishlar 20–40 % ga oshgani qayd etilgan (Bentall R., 2020). Xitoylik tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra esa umumiy populyatsiyada xavotirli buzilishlar 73,4 %, depressiv simptomlar 50,7 %, insomniya esa 36,1 % gacha yetgani aniqlangan (Liu S., Yang L., Zhang C., Xiang Y., Liu Z. va boshqalar). Ushbu natijalar pandemiya ruhiy salomatlikka global miqyosda kuchli ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda ham COVID-19 davri va undan keyingi bosqichlarda nevrologik hamda psixoemosional buzilishlar 3–4 barobar oshgani bir qator mahalliy tadqiqotlarda qayd etilgan (Ashurov Z.Sh., Magzumova Sh.Sh., Rahimbaeva G.S., Majidova Yo.N., Yakubova M.M., Ibodullaev Z.R., Xaydarova D.K. va boshqalar). Bu esa pandemiya oqibatida yuzaga kelgan postkovid psixopatologik holatlarning klinik ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda postkovid sindrom va uning psixoemosional asoratlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar kengayib bormoqda. Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xavotirli-fobik va xavotirli-depressiv buzilishlar fonida rivojlangan surunkali insomniyaning klinik-psixologik tuzilmasi yetarlicha o'rganilmagan hamda tizimli taqqoslovchi yondashuvlar kam uchraydi.

Shuningdek, ushbu patologik holatlarda kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, xususan, insomniya uchun CBT-I (Cognitive Behavioral Therapy for Insomnia) usulining qo'llanilishi va uning samaradorligi bo'yicha ilmiy ma'lumotlar yetarli emasligi qayd etiladi. Shu bois, surunkali insomniyaning xavotirli-depressiv buzilishlar bilan komorbid holatini o'rganish, uning klinik-psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda psixoterapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. COVID-19 pandemiyasi global miqyosda nafaqat somatik kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarining ortishiga, balki aholining ruhiy salomatligida ham keskin o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Pandemiya davri va undan keyingi bosqichlarda xavotirli-fobik, xavotirli-depressiv hamda obsessiv-fobik buzilishlar, shuningdek, surunkali insomniya holatlarining sezilarli darajada ortishi klinik-psixologik tadqiqotlarning dolzarbligini yanada kuchaytirdi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, COVID-19 pandemiyasigacha bo'lgan davrda xavotirli buzilishlar tarqalishi 3–30 % oralig'ida kuzatilgan bo'lsa, pandemiya davrida bu ko'rsatkich 12–70 % gacha oshgani qayd etilgan (Yao H., Zhao N. va boshqalar). Yevropa va Osiyo mamlakatlarida ham xavotir va depressiv simptomlarning keskin ortishi, insomniya holatlarining keng tarqalishi kuzatilgan. Xususan, Xitoy tadqiqotchilari ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya davrida xavotirli buzilishlar 73,4 %, depressiya 50,7 %, insomniya esa 36,1 % ni tashkil etgan (Liu S. va boshqalar). Ushbu ko'rsatkichlar COVID-19 ning ruhiy salomatlikka global ta'sirini yaqqol namoyon etadi.

O'zbekistonda ham pandemiya va postpandemiya davrida nevrologik, neyropsixologik va psixoemosional buzilishlar 3–4 barobargacha oshgani bir qator mahalliy tadqiqotlarda qayd etilgan (Ashurov Z.Sh., Magzumova Sh.Sh., Rahimbaeva G.S., Majidova Yo.N., Ibodullaev Z.R. va boshqalar). Bu esa mamlakatimiz sharoitida ham ushbu muammoni chuqur ilmiy o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shunga qaramasdan, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xavotirli-fobik va xavotirli-depressiv buzilishlar fonida rivojlangan surunkali insomniyaning klinik-psixologik tuzilmasi yetarlicha tizimli o'rganilmagan. Ayniqsa, ushbu komorbid holatlarda psixokorreksion yondashuvlar, xususan kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT-I)ning samaradorligi bo'yicha ilmiy ma'lumotlar cheklangan.

Shu sababli, surunkali insomniyaning xavotirli-depressiv buzilishlar bilan komorbidligini o'rganish, uning klinik-psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda samarali psixoterapevtik va psixokorreksion algoritmlarni ishlab chiqish zamonaviy klinik psixologiya va psixiatriya uchun dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Muhokama. O'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, COVID-19 pandemiyasi davrida va undan keyingi bosqichlarda aholida xavotirli-fobik, xavotirli-depressiv hamda obsessiv spektrga oid buzilishlar bilan bir qatorda surunkali insomniya holatlari sezilarli darajada ortgan. Ushbu holatlarning birgalikda uchrashi klinik amaliyotda komorbid patologiyalarni shakllantirib, ularning kechishini murakkablashtiradi hamda bemorlarning hayot sifatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, xavotir va depressiv simptomlar insomniyaning rivojlanishi va surunkali tus olishida asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi. Disfunktsional kognitsiyalar, emotsional zo'riqish, doimiy xavotir va stressga nisbatan yuqori sezuvchanlik uyquni boshqaruvchi neyrofiziologik mexanizmlarni buzadi. Natijada uyquga ketish qiyinlashadi,



uyqu fragmentatsiyasi kuchayadi va bu holat o'z navbatida psixoemosional buzilishlarni yanada chuqurlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ham ko'rsatadiki, surunkali insomniya va xavotirli-depressiv buzilishlar o'rtasida ikki yo'nalishli (bidireksional) bog'liqlik mavjud bo'lib, har ikkala holat bir-birini kuchaytiruvchi patologik siklni hosil qiladi. Shu sababli faqat farmakoterapiya qo'llash ko'pincha yetarli natija bermaydi va kompleks psixologik yondashuvga ehtiyoj tug'iladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT-I), relaksatsiya usullari, mindfulness va psixoedukatsiya insomniya va komorbid xavotir-depressiv buzilishlarni korreksiya qilishda eng samarali yondashuvlar sifatida e'tirof etilgan. Ushbu usullar uyqu bilan bog'liq noto'g'ri e'tiqodlarni o'zgartirish, fiziologik qo'zg'aluvchanlikni kamaytirish hamda emotsional barqarorlikni tiklashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda COVID-19 bilan bog'liq komorbid psixopatologik holatlarda, xususan surunkali insomniya va xavotirli-depressiv buzilishlar kombinatsiyasida psixokorreksion algoritmlarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani aniqlanadi. Bu esa ushbu yo'nalishda qo'shimcha empirik tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, o'rganilgan ma'lumotlar ushbu komorbid holatlarni erta aniqlash, differensial diagnostika qilish va individual psixoterapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish klinik-psixologik amaliyotning muhim vazifalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. O'tkazilgan adabiyotlar tahlili va ilmiy manbalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, COVID-19 pandemiyasi global miqyosda nafaqat somatik salomatlikka, balki aholining ruhiy holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, xavotirli-fobik, xavotirli-depressiv hamda obsessiv spektrdagi buzilishlar bilan bir qatorda surunkali insomniya holatlarining keskin ortishiga sabab bo'lgan. Ushbu holatlar ko'pincha komorbid tarzda namoyon bo'lib, klinik-psixologik tuzilmaning murakkablashuviga olib kelgan.

Ilmiy ma'lumotlar asosida aniqlanishicha, xavotir va depressiv buzilishlar surunkali insomniyaning shakllanishi va davom etishida asosiy psixopatologik omillardan biri hisoblanadi. Ushbu o'zaro bog'liqlik patologik siklni yuzaga keltirib, bemorlarning emotsional barqarorligi, kognitiv funksiyalari va hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT-I), relaksatsiya usullari, mindfulness va psixoedukatsiya kabi psixokorreksion yondashuvlar surunkali insomniya hamda unga komorbid bo'lgan xavotirli-depressiv buzilishlarda samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu usullar uyqu sifatini yaxshilash, emotsional zo'riqishni kamaytirish va psixologik moslashuvni tiklashga xizmat qiladi.

Shu sababli, surunkali insomniya va xavotirli-depressiv buzilishlar komorbidligini erta aniqlash, ularning klinik-psixologik mexanizmlarini chuqur o'rganish hamda individual psixoterapevtik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish zamonaviy klinik psixologiya uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar bemorlar hayot sifatini yaxshilash va samarali davolash strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yao, H., Zhao, N. (2020). COVID-19 related psychological distress. *Asian Journal of Psychiatry*.
2. Ashurov, Z. Sh. (2021). COVID-19 pandemiyasining psixoemosional oqibatlari. Toshkent.
3. Magzumova, Sh. Sh. (2022). Postkovid sindrom va ruhiy buzilishlar. Ilmiy maqola.
4. Rahimbaeva, G. S. (2022). Neyropsixologik buzilishlar va COVID-19. O'zbekiston tibbiyot jurnali.
5. Majidova, Yo. N. (2021). Stress va xavotir buzilishlari klinikasi.
6. Ibodullaev, Z. R. (2021). Klinik psixologiya asoslari. Toshkent.



	Yoshlar xulq atvorida ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishning psixologik determinantlari
113.	Ravshanov Khusan Abdiquil o'g'li Factors influencing students' self-activation in the context of digital education
114.	Янгибоева Дильноза Абдурасул кизи Когнитивные подходы к управлению стрессовыми состояниями в спортивном процессе
115.	Babayeva Nazira Asatullayevna Psychological foundations of forming students' professional identity in higher education environment
116.	Razzoqova Shakhnoza Jo'rayevna Socio-psychological factors of students' academic adaptation in private higher education institutions: a theoretical and empirical analysis
117.	Odinayev Tolibjon Toyirovich Psychological foundations for the development of professional competence among future nurses in medical education
118.	Nusratova Mexriniso Baxshilloyevna Socio-psychological and practical foundations for developing altruistic motivation in future psychologists
119.	Meliyev Soxibidavron Xasanovich Socio-psychological determinants of digital and behavioral addictions among university students
120.	Эрмэтова Нафиса Бахромовна Социально-психологические факторы проявления одиночества у молодых родителей под влиянием виртуального мира
121.	Akhatov Yuldoshjon Khamzaevich Metacognitive mechanisms for strengthening students' self-control and volitional stability in learning activities
122.	Ummatov Baxtiyor Toshqo'zi o'g'li Mikrota'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish modeli
123.	Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik yondashuvlarning ahamiyati
124.	Amirjanova Dildora Zarifboy qizi Surunkali insomniyada klinik-psixologik tuzilma va psixokorreksiya yondashuvlari
125.	Вайдулла Мадинабону Мухтасам кизи Механизмы развития процессов общения и мышления в системе семейных отношений
126.	Shukurova Nargiza Ikramovna Talabalarida kasbiy refleksiyani rivojlantirishning konseptual-integrativ modeli
127.	Rahimova F.A Boshlang'ich ta'lim jarayonida allomalar ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlari